2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

https://sites.google.com/view/imxu/
реестр:1070589

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini takomillashtirish

Xolmurodov Baxrom Maxmatkarim o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi bank moliya

akademiyasi tinglovchisi

Tel: 97 850-91-19

Annotasiya: Mazkur tezisda byudjet tashkilotlarida pul mablag’lari nazoratini tashkil etish va ularning tahlilini amalga oshirish, yo’llarini ko’rsatish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: budjet, budjet hisobi, budjet hisobi standarti, pul, moliyalashtirish, tashkilot, investitsiya.

Budjet hisobi - Budjet tizimi Budjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o’zgartiruvchi operatsiyalarning holati to’g’risidagi axborotni to’plash, ro’yxatdan o’tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir.

Budjet hisobi standarti – Budjet hisobini yuritishga belgilangan talablarni aks ettirgan hujjatdir. Budjet hisobi standarti milliy hamda xalqaro standartlarga bo’linadi.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida budjet va soliq siyosatida olib borilayotgan islohotlar sharoitida budjet tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirishni qisqartirih uchun olib borilayotgan tadbirlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg`armalari ahamiyatining yuqori ekanligini ko`rsatib bermoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me`yoriy-huquqiy asoslar olib

borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag`shlangan Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Budjet mablag`laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi, budjet hisobidan mablag` ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko`rsatkichlaridan iborat, natijaga yo`naltirilgan indikatorlari bo`lishi kerakligi ta'kidlab o`tildi. Ma`lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budjetga tushadigan mablag` albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma`muriyatchiligi orqali bartaraf etish va budjet barqarorligini ta`minlash mumkun. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamiz" ekanligi prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan aytib o`tildi.

Budjet ijrosi jarayonida Davlat budjeti mablag`lari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari shakillanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budjet mablag`laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o`lchovsiz emas, mablag`larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta`minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo`lmaydigan haqiqat"[1]- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida. Budjet tashkilotlari budjet mablag`larining asosiy iste`molchisi

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2017.

hisoblanib, davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag`lar yuzasidan tashkil bo`lish manbalari va foydalanish yo`nalishlari ko`rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so`nggi natijaga yo`naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g`azna ijrosiga o`tilishi, o`rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o`z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar yurtimizni dunyoga Yangi O‘zbekiston sifatida tanitib bormoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo’yicha amaliy ishlar davom etmoqda. So’nggi yillarda budjet tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmini tubdan o’zgartirish, davlat sektorlarini budjetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun samarali chora – tadbirlar ko’rilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me`yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi:

-budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);

-budjetni ko’rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;

-budjetni ijro etish;

-budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni ijro etishga (budjet davri) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzishdan oldin tashkilotlar:

- hisobot choragi mobaynidagi faoliyat turiga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishga, vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishga, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilayotgan homiylik yordamlarga, shuningdek, hisobot choragining oxirgi ishkunida tejab qolingan budjet mablag'lariga doir dastlabki hujjatlarni to'liqligini;

- hisob raqamidan olingan ko'chirmalarni va tegishli hisob registrlari ma'lumotlarini to'g'riligini tekshirib chiqadilar.

Xozirgi kunda Budjet hisobi standartlarini qabul qilinishi:

- Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha milliy qonunchilik talablarini e'tiborga olish;

- Ortiqcha xarajatlarsiz buxgalteriya va moliya xodimlarini tayyorlash, o'qitishni tashkil etish;

- Amaldagi avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturini (UzASBO) ba'zi kichik o'zgartish va qo'shimchalar bilan foydalanish;

- Yangi o'zgarishlar jarayonini tashkil etishni osonlashtirish imkonini beradi.

Budjet hisobining 1-sonli "Hisob siyosati" va 2-sonli "Yagona schyotlar rejasi" nomli standartlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'xatdan o'tkazildi.

Budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada budjet hisobining xorij tajribalarini o'rganish ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda alohida axamiyat kasb etadi. Shuningdek, budjet hisobi va hisobotini takomillashtirishda byudjet hisobining xorij tajribalri, ularni qo'llashning afzallaliklari va bosqichlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Mazkur tezis orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko'plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining ta'sirini ko'rsatayotgan bir davrda davlat budjeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Budjet tizimida pul mablag'larini nazorat qilish borasida amaliy ishlar davom etmoqda va budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tubdan isloh qilish orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada

integratsiyalashuvini ta’minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to’liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.